

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14559710>

TALABALARDA BOSHQARUVCHANLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA HORIJY TENDENSIYALAR

O‘rinova Feruza O‘ljayevna

Farg‘ona davlat universiteti,
maktabgacha ta‘lim katedrasi professori v.b., p.f.n.

feruza19711971@mail.com

Annotatsiya: Hozirgi kunda talabalarda boshqaruvchanlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish nafaqat psixologik-pedagogik, balki ijtimoiy muammo sifatida ham o‘ziga xos dolzarblik kasb etadi. Ushbu maqolada maktabgacha ta‘lim jarayonida talabalarda boshqaruvchanlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish yo‘llari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: menejment, boshqaruv madaniyati, kompetensiyviy yondashuv, tashabbuskor va liderlik, Jamoa, intellektual, rahbar-lider.

ЗАРУБЕЖНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В ФОРМИРОВАНИИ И РАЗВИТИИ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ КАЧЕСТВ СТУДЕНТОВ

Аннотация: Формирование и развитие управленческих качеств у студентов является не только психолого-педагогической, но и социальной проблемой. В данной статье описаны пути формирования и развития управленческих качеств у школьников в период дошкольного образования.

Ключевые слова: менеджмент, культура управления, компетентностный подход, инициатива и лидерство, команда, интеллектуал, менеджер-лидер.

FOREIGN TENDENCIES IN THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF MANAGEMENT QUALITIES IN STUDENTS

Abstract: *The formation and development of management qualities in students is not only a psychological-pedagogical, but also a social problem. This article describes ways to form and develop management qualities in students during preschool education.*

Keywords: *management, management culture, competence approach, initiative and leadership, team, intellectual, manager-leader.*

KIRISH

Zamonaviy ta'limda talabalarda boshqaruvchanlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish nafaqat psixologik-pedagogik, balki ijtimoiy muammo sifatida ham o'ziga xos dolzarflik kasb etadi. Bugungi kunda boshlang'ich sinflarda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, dunyoqarashlarini kengaytirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash qay darajada ahamiyat kasb etayotgan bo'lsa, ularda boshqaruvchanlik sifatlarini shakllantirish ham shu qadar muhim vazifa hisoblanadi. Binobarin, talabaarda maktabgacha ta'limdarvridanoq boshqaruvchanlik sifatlarini shakllantirish, mustaqil fikrlash qobiliyati hamda muloqotga tez kirishuvchan bo'lishlariga erishish ularning kelajakda demokratik jamiyatning faol a'zolari bo'lib voyaga etishlarini ta'minlovchi omillardan biri sanaladi.

Maktabgacha ta'lim talabalarida boshqaruvchanlik sifatlarini shakllantirishda ularning yosh, psixologik va fiziologik xususiyatlari, shuningdek, layoqat, qiziqish va qobiliyatlarini inobatga olish kutilgan natijaning qo'lga kiritilishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Boshqaruvchanlik layoqatiga egalik shaxsning jamoa faoliyatini uyushtirish, ijtimoiy, shu jumladan, ma'naviy ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda tashkiliy masalalarni muvaffaqiyatli hal qilish, tadbirlarni metodik jihatdan maqsadga muvofiq o'tkazilishini ta'minlash hamda tadbirlar jarayonida har bir ishtirokchi tomonidan

muayyan vazifalarning bajarilishkga rahbarlik qilish ehtiyojining mavjudligini ifodalaydi. Jamoa faoliyatini uyushtirishda tashkilotchi shaxs o‘z zimmasiga muayyan majburiyatlarni olish, mas’uliyatni chuqur his etish, dadil harakatlanish, berilgan so‘z (va’da)da qat’iy turish, har bir a’zoga nisbatan talabchan bo‘lish, jarayon natijasi uchun javobgarlik hissini tuyish kabi sifatlarni o‘zida namoyon eta olishi lozim.

Bo‘lajak tarbiyachilarni boshqaruv madaniyatining ilmiy yo‘nalishlarini belgilash va uni amalga oshirish uchun mutaxassislarni tayyorlash bizga tadqiqot muammosining pedagogik masalalarini o‘rganishga kirishish va maktabgacha ta’lim tashkilotida ishlaydigan boshqaruv kadrlarining boshqaruv madaniyatining mohiyatini aniqlashga imkon berdi. Muammoning ko‘p bosqichliva ko‘p qirrali xususiyatini inobatga olgan holda o‘rganish - kasbiy faoliyatga kompetensiyviy yondashuvning mohiyatini ochib berishdan va maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun mutaxassislarni tayyorlashdan, asosiy tadqiqot tushunchalari – boshqaruv madaniyati va madaniyatlikni aniqlashdan, so‘ngra maktabgacha ta’lim tashkilotidagi boshqaruv kadrlarining kasbiy madaniyatining tarkibiy qismi sifatida boshqaruv madaniyatining psixologik-pedagogik xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir.

Mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlar natijasida “...maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish va ushbu tashkilotlarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish” [1] kabi yo‘nalishlar belgilangan.

NATIJAR VA MUHOKAMA

Maktabgacha ta’limiyoshi psixologik nuqtai nazardan mustaqillik, o‘z imkoniyatlarini baholash va o‘z-o‘zini boshqarish kabi sifatlarni shakllanadigan davr sanaladi. Mazkur yosh davri bolalarning turli faoliyat ko‘rinishlarida o‘yin, mehnat va ta’lim jarayonlaridagi ishtiroklari ularda faollik, harakatchanlik, mustaqil qaror qabul qilish, o‘z imkoniyatlarini baholash hamda o‘zlari mansub bo‘lgan mikroguruhda tengdoshlarining hatti-harakatlarini tahlil qilish layoqatlarining shakllanishiga sezilarli

ta'sir ko'rsatadi. SHuningdek, maktabgacha ta'limdavrida sinf rahbarlari hamda fan o'qituvchilari tomonidan talabalarning turli ko'rinishdagi faoliyatlarini tizimli, doimiy kuzatib borishlari talabalarni o'z xatti harakatlariga baho berishga o'rgatadi.

O'qituvchilar maktabgacha ta'lim talabalarini o'yin, mehnat va o'quv faoliyatida erishayotgan eng oddiy muvaffaqiyatlari uchun ham rag'batlatirib borishlari ularda o'z imkoniyatini munosib baholash, o'z kuchiga ishonish, mustaqillik, tashabbuskorlik va maqsadga intiluvchanlik kabi sifatlarni shayutaantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Boshqaruv sohasidagi xorijiy tendensiyalar o'z-oziga xos shakllari mavjud. Ularning barchasi tinchlik, baholash, marketing, moliyaviy muammolar, axborot texnologiyalari shuningdek, shaxsiy rivojlanish, zamonaviy pedagogika nazariya, inovatsion texnologiyalardir. Bularning har biri o'zini ajralmas sifatlarini tasdiqlab o'tadi, hamda ular bir-birlari bilan farqli ravishda bog'liqdir. O'rta maxsus va umumiy ta'lim muassasalarining boshqarishining bugungi xorijiy tendensiyalarida qo'llanma muvaffaqiyati, innovatsion texnologiyalardan foydalanish va talabalarning shaxsiy rivojlanishiga e'tibor beradi.

Maktabdagi faoliyatlari davrida o'qituvchilar tomonidan maktabgacha ta'lim talabalarini o'z atrofida tengdoshlarini ergashtira olish, topshirilgan vazifani bajarishda mas'uliyatli bo'lish, bajarilgan ishlar natijasi haqida mas'ul sub'ektlarga o'z vaqtida hisobot berib borish, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tez anglash, xatolarni tan ola bilish va uni bartaraf etishda tashabbus ko'rsatish va bu yo'lda mustaqil harakat qilishga izchil ravishda o'rgatib borish pedagogik jihatdan samarali hisoblanadi.

Boshqaruvchanlik zamonaviy, ishbilarmon shaxsga xos sifatlar majmui sanaladi. Ingliz olimi F.Teylorning fikriga ko'ra, zamonaviy shaxs qiyofasida aql-idrok, maxsus ma'lumot hamda texnikaviy bilimlarga egalik, chidamlilik, bardoshlilik, xushmuomalachilik, ta'sirchanlik, qat'iyatlilik, xaqiqatgo'ylik, mulohazakorlik kabi sifatlar namoyon bo'ladi.

Boshqaruv sohasida faoliyat yuritayotgan olim A.Fayol tashkilotchi shaxs, eng avvalo, uzoqni ko'ra olish qobiliyatiga ega bo'lishi zarurligini uqtiradi. Uzoqni ko'ra

olish qobiliyati negizida jamoa ijtimoiy faoliyatini tashkil etish layokati, mustaqkam sogʻlik, intellektual salohiyat, jismoniy barkamollik, yuksak madaniyatlik va axloqyailik. Muallifning fikricha, boshqaruvchanlik sifatleri jamoani uyushtira olish, mutaxassis (kadr)larni joy-joyiga qoʻyish, istiqbolda hal etiluvchi vazifalar (uyushtiriluvchi tadbirlar)ni rejalashtirish, qatiy nazoratni yoʻlga qoʻyish bilan xarakterlanadi. Shaxsda boshqaruvchanlik sifatleri muayyan psixologik xususiyatlarning namoyon boʻlish jarayonida shayudanadi.

Xalqaro ilgʻor tajribalarga asosan, AQSH, Angliya, Germaniya, Rossiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning maktabgacha taʼlim tizimida boshqaruv jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida loyihalashni amalga oshirishning ilmiy asoslangan metodik tizimini yaratish borasida salmoqli amaliy natijalarga erishilgan. Shunga koʻra, raqobatbardosh, malakali, tashabbuskor va liderlik koʻnikmalariga ega boʻlgan boʻlajak tarbiyachilarni tayyorlashda oliy taʼlim tizimida egallagan nazariy bilimlarni boshqaruv amaliyotida qoʻllay olish koʻnikmalarini rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan mutaxassislarning boshqaruv faoliyatlarida umumkasbiy va mutaxassislikka doir muammolarga yechim topish va amalga tatbiq etishda boshqaruv madaniyatini shakllantirish muhim oʻrin egallaydi. Shu nuqtai nazardan boʻlajak mutaxassislarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda hamda ularning tashabbuskorlik, liderlik kabi rahbarlikning oʻziga xos jihatlarni rivojlantirish uchun boshqaruv madaniyatini shakllantirishga alohida eʼtibor qaratish zarur hisoblanadi.

Ushbu muammoning yechimi muqarrar ravishda maktabgacha taʼlim tashkiloti mutaxassisining kasbiy faoliyati va maktabgacha taʼlim tashkilotining mutaxassisini kasbiy tayyorgarligi jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni ochib beradigan gʻoyalar va nazariy prinsiplarga murojaat qilishni amalga oshiradi. Kompetensiyaviy yondashuv - bu taʼlim natijalariga yoʻnaltirilgan yondashuv va natijasi oʻrganilgan maʼlumotlarning miqdori emas, balki insonning turli muammoli vaziyatlarda harakat qilish qobiliyatidir. Ustuvor maqsadlar - taʼlim yoʻnalishlari quyidagilardir: oʻz taqdirini oʻzi belgilash, oʻzini oʻzi anglash, sotsializatsiya va individning rivojlanishi [2].

Rahbarlik uslubi menejment madaniyatining ma'lum elementlariga ega bo'lishini taqozo etadi. Madaniyat – boshqarish uslubining eng muhim majmuasidir. Yuksak madaniyatlilik, uyushqoqliq, aniqlilik va tezkorlik singari odamiylik fazilatlari har bir rahbar uchun namuna bo'lmog'i kerak.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, pedagogik boshqaruv natijaga qarab mo'ljal olish bilangina kifoyalanmaydi, u pedagogik hodisaga jarayon sifatida yondashadi. Boshqaruv – yangi g'oyalar uchun ochiq faoliyat. U o'z mohiyatiga ko'ra innovatsiondir. Har bir rahbar yoki pedagog pedagogik boshqaruv san'atida muttasil takomillashuvi mumkin. Hech kimni samarali rahbar bo'lishga o'rgatish mumkin emas. Bo'ning uchun ta'lim oluvchining shaxsiy ishtiroki, uning jiddiy nazariy ishga tayyorligi talab etiladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, butun dunyoda ishlab chiqarish va uni boshqarish borasida modernizatsiya siyosatining tan olinishi, barcha davlatlarning o'ziga xos demokratiya tamoyillari asosida jamiyatni, xususan, mehnat jamoalarini boshqarish siyosatiga o'tishi munosabati bilan boshqaruv masalalariga ham munosabat o'zgardi. Jumladan, mustaqil O'zbekistonda ham erkin fuqarolik jamiyati qurish tamoyillarining yangidan belgilanganligi, Prezidentimiz tomonidan barcha jabhalarda, xususan, ijtimoiy sohalarda insonparvarlik siyosatining keng singdirilishi munosabati bilan rahbar va lider shaxslarga nisbatan ijtimoiy fikrda ham muayyan o'zgarishlar ro'y berdi. Bugun O'zbekiston sharoitida bunyodkorlik sifatlariga ega bo'lgan, o'z oilasi, mahallasi, shaxsan o'zi va jamiyat mafnaatini o'ylab mehnat qilayotgan fuqaro jamiyat tomonidan ijtimoiy himoyada bo'lib, uning faoliyatini muvofiqlashtirish, unga yetarli darajada ish sharoitlarini yaratishga mas'ul bo'lgan rahbar, eng avvalo, unga g'amxo'r bir inson sifatida qarashi, mehnatdan manfaatdorlik psixologiyasini uning ongiga singdira bilishi lozim. Xalqqa yaqin bo'lib, uning dardi bilan yashash, har bir ishning istiqbolini yaqqol tasavvur qila olish – zamonaviy rahbar-liderni xos fazilatlardir.

Zamonaviy psixologiya fani tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, boshqaruvda, ayniqsa, uning uslublarini tanlashda sintetik tanlovning bo'lishi ko'proq ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni //O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. Toshkent, 2017. – B. 39. www.lex.uz
2. Qodirova F., Jo‘rayeva N. Maktabgacha ta’limga zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent, 2018 y. 57 b
3. N.M.O‘rinova M.O‘.U‘rolova. Ta’lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuv. Farg‘ona – 2012.
4. Olimov.Q.T. Zamonaviy ta’lim va innovatsion texnologiyalar bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalar. – Buxoro, 2015 y. 45 b
5. Robert Wagenaar, A History of ECTS, 1989-2019. Developing a World Standard for Credit Transfer and Accumulation in Higher Education. International Tuning Academy, 2020.
6. V.X.Xodjayev, Umumta’lim maktabi o‘quvchilarida mustaqil fikrlashni shakllantirishning didaktik asoslari, Ped.f.n...diss. – Toshkent, 2009, 19 b
7. Uljaevna U. F. et al. Necessary conditions for the development of creative thinking in future teachers //Modern Journal of Social Sciences and Humanities. – 2022. – T. 4. – C. 444-448.
8. Uljayevna O. R. F., Saydamatovna S. Z. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyatini shakllantirishning o‘quv-uslubiy ta’minoti //science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B3. – C. 349-355.
9. Urinova F., Azizmatova z., Fazliddinova s. Didactic foundations for forming the professional competence of the future teacher. //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 4 part 4. – с. 197-202.
- 10.O‘rinova f. Innovative reforms in the modern preschool education system //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B2. – с. 557-561.